

Shartnoma tuzish uchun oferta

Internet tarmog'ida https://alltest.uz/uploads/Content/Files/oferta_uzb.pdf manzilida doimiy joylangan ushbu hujjat, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq, har qanday manfaatdor shaxs (keyingi o'rinlarda – Buyurtmachi) bilan dasturiy ta'minot xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida Shartnoma (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) tuzish bo'yicha oferta hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, ushbu oferta aksepti Buyurtmachi tomonidan quyidagi harakatlarning bajarilishi bilan belgilanadi:

- Alltest Platformasida ro'yxatdan o'tish, <https://alltest.uz/> Saytida ariza topshirishda “Akkaunt yaratish” tugmasini yoki Saytda ko'rsatilgan boshqa o'rinlarda tegishli tugmani bosish;
- <https://alltest.uz/> Saytida ariza berish mobaynida “Men shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosati shartlarini qabul qilaman” tugmasini yoki keltirilgan Saytdagi boshqa o'rinlarda tegishli tugmani bosish.

Platformaning belgilangan qismlariga kirish uchun Foydalanuvchiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Platformaning funksional imkoniyatlari orqali qo'shimcha kirishni sotib olish uchun ariza yuborish;
- Shartnomada belgilangan tartibda Ijrochi Tarifini to'lash.

Ijrochi xizmatlari haqini to'lash bilan Buyurtmachi:

- o'zi to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotning ishonchliligi va dolzarbligini kafolatlaydi;
- o'zining voyaga yetgan va har tomonlama layoqatli shaxs ekanligini kafolatlaydi;
- o'zi to'g'risida taqdim etgan ma'lumotlarining ishonchsiz, eskirgan yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarning ko'rsatilishidan kelib chiqadigan har qanday oqibatlar uchun o'zi faqat javobgar ekaniga rozilik bildiradi.

Buyurtmachi tomonidan oferta aksepti sanasi (Shartnoma tuzilgan sana) Ijrochining xizmat ko'rsatishi uchun pul mablag'larini Ijrochining hisobiga o'tkazilish sanasi hisoblanadi.

Shartnoma

1. Asosiy tushunchalar

Shartnomada quyidagi keltirilgan terminlar ma'nosi keltirilmagan holda, ular quyidagini anglatadi:

Platforma	Internet tarmog'ida https://alltest.uz/ manzilida mavjud bo'lgan Ijrochiga mutlaq huquqlari tegishli bo'lgan intellektual huquqlarning murakkab obyekti, ma'lum bir natijaga, shu jumladan, dasturda mavjud bo'lgan ma'lumotlar va u tomonidan yaratilgan audiovizual tasvirlar bilan interaktiv (multimedia) o'zaro aloqa qilish uchun dasturiy ta'minot qobig'iga erishish maqsadida EHM va boshqa kompyuter qurilmalarining ishlashi uchun mo'ljallangan hamda obyektiv shaklda taqdim etilgan ma'lumotlar va buyruqlar to'plamidan tashkil topgan multimedia mahsulot “Alltest Platformasi” (axborot tizimi). Bunda natija sifatida Buyurtmachi tomonidan tanlangan bo'lim bo'yicha uning mustaqil
-----------	--

ta'lim olish jarayonini tashkil etish, audiovizual tasvirlar sifatida Buyurtmachiga turli ma'lumotlar va buyruqlardan foydalanish imkoniyati orqali kirish huquqi taqdim etiladigan ma'lumotlar, matnlar, grafik elementlar, dizaynlar, tasvirlar, foto va video materiallar hamda boshqa intellektual mulk obyektlari to'plami tushuniladi.

Sayt	Axborot tizimida mavjud bo'lgan ma'lumotlar, matnlar, grafik elementlar, dizayn, rasmlar, foto va video materiallar, intellektual faoliyatning boshqa natijalari to'plami ko'rinishidagi tarkibli ishlanma bo'lib, bunday axborotlarning Internet tarmog'idagi https://alltest.uz/ domen hududi ichida mavjudligi ta'minlanadi.
Shaxsiy kabinet	Buyurtmachini ro'yxatga olish natijasida yaratilgan va uning autentifikatsiya ma'lumotlarini (elektron pochta manzili va parol) Saytda ko'rsatilgan maydonlarga kiritish orqali foydalanish mumkin bo'lgan Platformaning xavfsiz sahifalari to'plami. Buyurtmachining Shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladigan qonuniy ahamiyatga ega harakatlari uning oddiy elektron imzosi bilan amalga oshiriladi, bunda elektron imzoning identifikatori va kaliti uning autentifikatsiya ma'lumoti hisoblanadi.
Kurs	Buyurtmachiga ma'lum bir ketma-ketlikdagi bir mavzuga birlashtirilgan, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlar va materiallardan (matnlar, foto va video materiallar, intellektual huquqlarning boshqa obyektlari) iborat bo'lgan belgilangan ma'lumotlar va buyruqlardan foydalanish huquqi beriladigan va Buyurtmachining tegishli mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallashiga qaratilgan Platformada mavjud ma'lumotlarning ma'lum bir qismi.
Kurslar to'plami	Buyurtmachi tomonidan ma'lum bir yo'nalish bo'yicha chuqurroq bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallashga qaratilgan Kurslar to'plami.
Mashg'ulotlar	Platformaning funksional imkoniyatlari orqali masofadan turib (onlayn) quyidagi formatlardan birida taqdim etilgan ma'ruza: Vebinar – bu onlayn rejimda real vaqtda translyatsiya qilinadigan ma'ruza. Vebinar formatidagi ma'ruzaga kirish uchun Buyurtmachi Ijrochi tomonidan Shaxsiy kabinetda yoki Saytning tegishli sahifasida ko'rsatilgan sana va vaqtda Platformada ko'rsatilgan havola orqali o'tadi. Video-dars – oldindan yozilgan va onlayn mavjud ma'ruza. Buyurtmachi oldindan yozilgan formatdagi videolardan istalgan vaqtda foydalanishi mumkin.
Tarif	Buyurtmachi tanlagan Kurs uchun Ijrochining xizmatlari narxi. Tariflar Ijrochi tomonidan https://alltest.uz/ da e'lon qilinadi.
Kontent	Foydalanuvchi tomonidan Platformada joylashtirilgan mualliflik huquqi obyektlarini o'z ichiga olgan xabarlar, kommentariylar va boshqalar.

2. Shartnoma mavzusi

- 2.1. Ijrochi Buyurtmachiga "Internet" axborot-kommunikatsiya tarmog'i orqali Platformaga masofadan foydalanishni (bundan buyon matnda "Xizmatlar" deb ataladi) taqdim etishi va Buyurtmachi Ijrochiga 4.8-bandga muvofiq taqdim etilgan foydalanish huquqi uchun to'lovni amalga oshirishni o'z zimmasiga

olishi shart. Ijrochi Buyurtmachiga faqat Buyurtmachi tomonidan tanlangan Kursga muvofiq Platformaning qismiga (Kursdan foydalanish uchun zarur ma'lumot va buyruqlar) kirish huquqini taqdim etadi.

- 2.2. Foydalanish huquqi Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan uchinchi shaxsga uning harakatlari uchun o'zinkidek javob berishi sharti bilan Ijrochi bilan qo'shimcha kelishuv asosida berilishi mumkin. Bunda Shartnoma shartlari bajarilishi doirasida uchinchi shaxs Buyurtmachiga tenglashtiriladi va Shartnomada ko'rsatilmagan bo'lsa, Foydalanuvchida mavjud barcha huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.
- 2.3. Ijrochi o'rganish uchun mavjud bo'lgan Kurslar ro'yxatini Platformaga joylaydi. Buyurtmachi Kurs narxi, tarkibi, jadvali (Mashg'ulotlar o'tkazilish kuni va vaqti) to'g'risida ma'lumotni Saytda joylangan tegishli Kurs sahifasida topishi mumkin. Buyurtmachi tomonidan Ijrochining support@alltest.uz elektron pochta manziliga yuborilgan yozma so'roviga binoan, Ijrochi Buyurtmachi tomonidan ro'yxatdan o'tish vaqtida ko'rsatilgan Buyurtmachi elektron pochtasiga Kurs haqida batafsil ma'lumotni yuboradi.
- 2.4. Xizmatlar Ijrochi tomonidan Buyurtmachiga Platformaga kirish huquqi berilgan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

3. Kursdan foydalanish huquqini taqdim etish shartlari

- 3.1. Kursdan foydalanish huquqini taqdim etish orqali Platformaning bir qismi bilan o'zaro ta'sirda bo'lish imkonini beradigan belgilangan ma'lumotlar va buyruqlar to'plamidan foydalanishni ta'minlash nazarda tutiladi.
- 3.2. Ijrochi Buyurtmachiga u Saytda ro'yxatdan o'tganidan va Xizmatlar narxini Shartnomaning 4.7-bandida nazarda tutilgan tartibda to'laganidan so'ng, Kursdan foydalanish huquqini taqdim etadi.
- 3.3. Ijrochi Buyurtmachiga Kursga kirish havolasini Saytda ro'yxatdan o'tish davomida kiritilgan elektron pochtaga yuborish orqali foydalanish huquqi taqdim etilgani to'g'risida xabar beradi.
- 3.4. Kurs bo'limlardan iborat. Kursga qarab, Buyurtmachining Kurs bo'limlaridan foydalanishi Ijrochining xohishiga ko'ra ta'minlanishi mumkin: a) bir vaqtning o'zida barcha Kurs bo'limlariga nisbatan; b) Buyurtmachining o'zlashtirishiga qarab: har bir keyingi Modulga kirish huquqi Buyurtmachi tomonidan bundan oldingi Bo'lim tamomlanganidan so'ng taqdim etiladi; yoki v) Bo'limning tegishli Kurs uchun Saytda joylangan jadvaliga muvofiq Platformada joylanish uchun tayyor bo'lganiga qarab
- 3.5. Kurs tarkibi Ijrochi tomonidan bir tomonlama tartibda, Kursdagi ma'lumot hajmini oshirish yoki o'zgartirish maqsadida o'zgartirilishi mumkin.

4. Tomonlarning qo'shimcha huquq va majburiyatlari

4.1. Ijrochi majburiyatlari:

- 4.1.1. Ish kunlari soat 10:00 dan 18:00 gacha Xizmat ko'rsatish va Platformaning ishlashi to'g'risida Buyurtmachiga axborot yordamini taqdim etish. Qo'llab-quvvatlash bo'yicha barcha savollar Ijrochi tomonidan support@alltest.uz elektron manziliga yuboriladi.
- 4.1.2. Platformaning texnik qismida Ijrochi tomonidan yo'l qo'yilgan yoki Ijrochining aybi bilan bo'lgan xatolar/kamchiliklar aniqlansa, topilgan xatolar/kamchiliklarni o'z vaqtida va o'z mablag'lari hisobidan oqilona vaqt ichida bartaraf etish.

4.2. Ijrochi huquqlari:

- 4.2.1. Buyurtmachi bilan kelishilmagan holda, ushbu Shartnomani bajarishga uchinchi shaxslarni jalb qilish va bu shaxslarning xatti-harakatlari uchun javobgarlikni saqlab qolish.

- 4.2.2. Buyurtmachidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'g'ri bajarish uchun barcha kerakli ma'lumotlarni, hujjatlarni so'rash.
- 4.2.3. Xizmatlar narxini o'zgartirish. Xizmatlarning haqiqiy narxi to'g'risida ma'lumot Buyurtmachiga tegishli Kurs sahifasida <https://alltest.uz/> Saytida taqdim etiladi. Buyurtmachi Kursdan foydalanish uchun to'lab bo'lgan holda, Xizmatlar narxining o'zgarishi amalga oshirilmaydi.
- 4.2.4. Ijrochining texnik resurslarida zarur rejalashtirilgan profilaktika va ta'mirlash ishlarini bajarish uchun Platformaning faoliyatini to'xtatib turish.
- 4.2.5. Buyurtmachi ushbu Shartnomani buzsa yoki Buyurtmachi barcha kerakli ma'lumotlarni taqdim etmasa yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'liq taqdim etmasa, Platformaga foydalanish huquqini to'xtatib qo'yish.
- 4.2.6. Kurs tarkibi, shu jumladan individual darslar mavzularini, ularning tarkibini, tegishli darslarning soni, sanalari va vaqtini, Bo'limlarni Platformaga joylashtirish jadvalini va Modullarga kirishni ochish vaqtini o'zgartirish, Mutaxassislar, O'qituvchilarni almashtirish. Bunday o'zgarishlar haqida ma'lumot <https://alltest.uz/> Saytida mavjud.

4.3. **Buyurtmachi majburiyatlari:**

- 4.3.1. Ijrochining Xizmat narxini o'z vaqtida va to'liq to'lash.
- 4.3.2. Xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan to'liq va aniq ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish (shu jumladan Saytda ro'yxatdan o'tish paytida).
- 4.3.3. Platformadagi shaxsiy kabinet login va parolining maxfiyligini ta'minlash.
- 4.3.4. Kursni o'tishda etika me'yorlariga rioya qilish, xususan, Kursni o'zlashtirish mavzusiga aloqasi bo'lmagan xabarlarini umumiy chatda yubormaslik, <https://alltest.uz/> Saytida yoki loyihaning boshqa media-resurslarida boshqa Buyurtmachilarga, Ijrochi xodimlariga, Ijrochiga nisbatan hurmatsizlik va haqoratlarga yo'l qo'ymaslik.

4.4. **Buyurtmachi huquqlari:**

- 4.4.1. Kursdan foydalanish huquqini Ijrochi bilan oldindan shartnomaga qo'shimcha kelishuv sifatida rasmiylashtiriladigan yozma kelishuv bilan ma'lum muddatga to'xtatish.
- 4.4.2. Kursdan foydalanishda Xizmat ko'rsatish tartibi va Platformaning ishlashi bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot yordami olish.

4.5. **Moliyaviy shartlar**

- 4.6. Ijrochi Xizmatlari narxi Saytda ko'rsatilgan Tariflarga asosan belgilanadi.
- 4.7. Belgilangan xizmatning narxi Saytda keltirilgan.
- 4.8. Buyurtmachi bir vaqtning o'zida Tarifning 100% (yuz foiz) miqdorida to'lovni amalga oshiradi.
- 4.9. Buyurtmachi tomonidan Ijrochi xizmatlarini to'lash majburiyati bajarilgan sana sifatida pul mablag'larining Ijrochi hisob raqamiga tushgan sana hisoblanadi.
- 4.10. Saytda yoki elektron pochta orqali kelgan xabarnoma asosida Xizmatlarni to'lashda, Buyurtmachi to'lovni amalga oshirish uchun avtomatik ravishda to'lovni qabul qilish tizimining sahifasiga yo'naltiriladi. Ijrochi elektron to'lov tizimining apparat-dasturiy kompleksini nazorat qilmaydi. Agar bunday xatolar natijasida Buyurtmachining mablag'lari yechib olinsa, lekin to'lov elektron to'lov tizimi tomonidan ruxsat etilmagan bo'lsa, mablag'ni Buyurtmachiga qaytarish majburiyati elektron to'lov tizimining provayderiga yuklatiladi.

- 4.11. Buyurtmachi Ijrochining hamkor banki tomonidan Buyurtmachiga taqdim etiladigan kredit bo'yicha Ijrochining Xizmatlarini to'lash huquqiga ega. Kredit Buyurtmachiga hamkor bank tomonidan belgilangan shartlarda beriladi. Ijrochi hamkor bank tomonidan Buyurtmachiga kredit berish shartlari, shuningdek hamkor bankning kredit berishdan bosh tortishi uchun javobgar emas.
- 4.12. Xizmatlarni ko'rsatish to'g'risidagi hujjatlar Buyurtmachi tomonidan Ijrochining support@alltest.uz elektron pochtasiga yuborgan so'roviga binoan Ijrochi tomonidan binoan taqdim etiladi.
- 4.13. Fiskal hujjatlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ravishda Buyurtmachi tomonidan Saytda ro'yxatdan o'tish paytida ko'rsatilgan Buyurtmachining pochta elektron shaklda yuboriladi.

5. Intellektual mulk

- 5.1. Platforma, shuningdek, uning qismlariga mualliflik huquqi Ijrochiga tegishli bo'lib, u barcha zarur huquq va majburiyatlarga ega.
- 5.2. Buyurtmachi ushbu Shartnomaga muvofiq Platformaga kirishning butun muddati davomida Platformadan taqdim etilgan funksional va mavjud ma'lumotlar bilan interaktiv o'zaro ta'sir doirasida foydalanish huquqiga ega.
- 5.3. Buyurtmachi majburiyatlari:
 - Ijrochining intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarini buzadigan har qanday harakatlarni, xususan, Ijrochining yozma ruxsatisiz Ijrochining intellektual faoliyatining natijalarini nusxalash, yozib olish, qayta yaratish, tarqatish kabilarni amalga oshirmaslik;
 - Ijrochining mualliflik huquqlari buzilishining ma'lum bo'lgan barcha holatlari to'g'risida Ijrochiga darhol xabar berish;
 - uchinchi shaxslarga Platformadagi Shaxsiy kabinetiga kirish uchun autentifikatsiya ma'lumotlarini bermaslik. Login va parolni yo'qotish, shuningdek, uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy olinishi holatlarida Buyurtmachi bu haqda Ijrochiga support@alltest.uz manziliga bildirishnoma yuborish orqali kechiktirmasdan xabar berishi lozim. Ko'rsatilgan bildirishnoma yuborilgunga qadar, Buyurtmachining Shaxsiy kabinetidan foydalangan holda qilingan barcha harakatlar Buyurtmachi tomonidan qilingan deb hisoblanadi.
- 5.4. Buyurtmachi tomonidan Platformadan, uning tarkibi va tarkibiy qismlaridan (umuman va qisman) hamda boshqa texnik yechimlaridan foydalanish Ijrochi tomonidan ishlab chiqilgan natijalarga bo'lgan huquqlarni Buyurtmachiga va/yoki uchinchi shaxsga (begonalashtirish) o'tkazish degani emas.
- 5.5. Maxfiylik Ijrochining Xizmatlarni ko'rsatish jarayoniga taalluqli, jamoat mulki bo'lmagan va hammaga ochiq bo'lmagan ma'lumotlarni qamrab oladi. Buyurtmachi Ijrochining yozma roziligisiz Xizmatlarni taqdim etish paytida uchinchi shaxslarga Ijrochi tomonidan taqdim etilgan maxfiy ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni oshkor qilmaslikni o'z zimmasiga oladi.

6. Platformadagi Kontent va kommentariylar

- 6.1. Buyurtmachi, agar shunday holat Platforma funksionalida mumkin bo'lsa, Platformada Kontent joylash huquqiga ega. Bunda Kontent joylash mobaynida Buyurtmachi Kontentdan dunyoning istalgan mamlakati hududida foydalanish muddati uchun mutlaq huquqni quyidagi usullar bilan taqdim etishga rozilik beradi:
 - 6.1.1. Kontentni qayta yaratish;
 - 6.1.2. Shaxsiy kabinet saqlanmalarida Kontent qismlarini saqlash;
 - 6.1.3. Kontent ketma-ketligiga amal qilmasdan faqat alohida qismlarini namoyish etish;

6.1.4. Kontentni tarjima qilish yoki boshqa usulda qayta ishlash;

6.2. Buyurtmachi Saytda uning qonuniy huquqlari va manfaatlarini buzadigan har qanday ma'lumotni, shu jumladan Kontentni topsa, Buyurtmachi Shartnomada ko'rsatilgan elektron pochta manziliga xabar yuborish orqali Ijrochiga tegishli ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizada buzilgan huquqlar va manfaatlarining mohiyatini, tegishli ma'lumotlarni ko'rsatib, shikoyatlarning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilish, rekvizitlarni, shu jumladan pasport ma'lumotlari va aloqa ma'lumotlarini ko'rsatish, bunday ariza yo'nalishi bilan bog'liq shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik berish zarur.

6.3. Buyurtmachi Sayt va Shaxsiy kabinet orqali quyidagilarni hisobga olgan holda Saytning maxsus bo'limlarida ma'lumot va kommentariylarni joylashtirish imkoniyatiga ega:

6.3.1. bunday ma'lumotlar Sayt mavzusiga mos kelishi kerak. Ijrochi o'z xohishiga ko'ra, bunday ma'lumotlarning Sayt mavzusiga muvofiqligini aniqlaydi va agar bu mezonga mos kelmasa, bunday ma'lumotlarni o'chirish huquqiga ega;

6.3.2. Ijrochining rozilgisiz boshqa Internet-Saytlarga havolalarni joylashtirish taqiqlanadi. Ijrochi Buyurtmachi tomonidan joylashtirilgan bunday ma'lumotlarni o'chirishga haqli;

6.3.3. Uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan ma'lumotlarni, shu jumladan intellektual ma'lumotlarni va quyidagi xarakterga ega ma'lumotlarni joylashtirish taqiqlanadi:

- tahdid, badnom qilish, haqorat nomaqbul so'zlarga ega, Sayt Foydalanuvchisi, uchinchi shaxslar, Ijrochining sha'ni va qadr-qimmatini yoki ishdagi obro'sini tushiradigan yoki shaxsiy hayoti daxlsizligiga tahdid soladigan;
- voyaga yetmagan shaxslar huquqini buzadigan;
- qo'pol yoki axloqsiz, odobsiz so'zlar mavjud bo'lgan, voyaga yetmaganlar ishtirokidagi pornografik tasvirlar va matnlar yoki sahnalar mavjud bo'lgan;
- hayvonlarga nisbatan zo'ravonlik yoki g'ayriinsoniy muomala sahnalari mavjud bo'lgan;
- o'z joniga qasd qilishning vositalari va usullari, uni sodir etishga undovchi har qanday ta'rif mavjud bo'lgan;
- irqiy, diniy, milliy adovat yoki urushni qo'zg'aydigan va/yoki rag'batlantiradigan, fashizmni yoki irqiy ustunlik mafkurasini targ'ib qiladigan;
- ekstremistik materiallar mavjud bo'lgan;
- jinoiy faoliyatni targ'ib qiladigan yoki jinoyat sodir etish bo'yicha tavsiyalar, ko'rsatmalar yoki qo'llanmalarni o'z ichiga olgan;
- cheklangan foydalanish huquqiga ega ma'lumotlarni, shuningdek, davlat yoki tijorat siri bilan cheklanmagan uchinchi shaxslar shaxsiy hayoti haqida ma'lumotni o'z ichiga olgan;
- giyohvand moddalar reklamasi yoki uni qabul qilishni ijobiy tasvirlaydigan;
- firibgarlik mazmunidagi;
- o'z nashrlariga e'tibor jalb qilishning yoqimsiz usullari, shuningdek, sarlavhaning katta harflarda yozilishi, bir nechta tinish belgilaridan foydalanish, nostandart shrift va hokazo;
- fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa huquq va manfaatlarini yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini buzadigan;
- reklama ma'lumotlarini Ijrochi bilan kelishmasdan joylashtirish taqiqlanadi.

6.3.4. Ijrochi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Shartnomaga rioya etilishini ta'minlash maqsadida Buyurtmachi tomonidan Saytda joylashtirilgan ma'lumotlarni tahrir qilish yoki o'chirish huquqiga ega.

6.3.5. Saytdan quyidagi maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi:

- axborotni ommaviy tarqatish (jumladan, spam-xabarlar), shuningdek, yuklab olish, saqlash, nashr qilish, tarqatish yoki Saytning normal ishlashiga o'zgartirish kiritishga imkon beradigan har qanday dasturiy ta'minotga kirish huquqini taqdim etish;
- Shartnomada yoki Ijrochi bilan Buyurtmachi o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarda yoki Ijrochining bir tomonlama hujjatlarida, shartlari Buyurtmachiga tegishli bo'lgan hollarda Buyurtmachining har qanday tadbirkorlik faoliyati yoki daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishi.

7. Maxfiylik

- 7.1. Maxfiylik Ijrochining Xizmatlarni ko'rsatish jarayoniga aloqador bo'lgan, jamoat mulki va barcha uchun ochiq bo'lmagan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Buyurtmachi Ijrochining yozma rozilgisiz Xizmatlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish paytida Ijrochi tomonidan taqdim etilgan maxfiy ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni oshkor qilmaslikni o'z zimmasiga oladi.
- 7.2. Buyurtmachi xizmatlar ko'rsatish doirasida tashqi mualliflik huquqi egalariga Platforma orqali dasturiy ta'minot, shuningdek, ichki axborot tizimlari, Saytlarga (keyingi o'rinlarda – DT) foydalanish huquqini berishi mumkin. Bunday holda, Buyurtmachi DT bilan Kursdan o'tish uchun zarur bo'lgan harakatlardan tashqari, hech qanday harakatlarni amalga oshira olmaydi. Bunday DTdan foydalanish huquqini berish muddati Kurs davomiyligi bilan cheklangan. Buyurtmachi DT haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi shart va bunday dasturiy ta'minot mualliflik huquqi egasining rozilgisiz uni oshkor qilishga haqli emas. Tomonlar o'rtasida maxsus kelishuv bo'lmagan holda, yuqoridagi vaziyatda istalgan DT yaratilishi yoki qayta ishlanishi sodir bo'lsa, Buyurtmachi qayta ko'rib chiqilgan yoki yaratilgan DTga bo'lgan mutlaq huquqni yaratish yoki qayta ishlash vaqtidan e'tiboran foydalanish huquqini taqdim etgan Kompaniyaga bepul o'tkazadi.

8. Tomonlarning majburiyatlari

- 8.1. Ijrochi aybdor bo'lgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.
- 8.2. Ijrochi Buyurtmachining Internetga ulanish sifati va uskunalari va dasturiy ta'minotining ishlashi uchun javobgar emas.
- 8.3. Agar Buyurtmachi Shartnomaning 6.3-bandida ko'zda tutilgan majburiyatni bajarmasa va Ijrochi uchinchi shaxslarning Kurs tarkibiga kirishi faktini aniqlasa, Buyurtmachi Ijrochining yozma iltimosiga binoan suddan tashqari uchinchi shaxslarga ruxsatsiz kirishga imkoniyat berilgan har bir holat uchun 100 000 000 (yuz million) so'm miqdorida jarima to'lovini amalga oshirishi shart.
- 8.4. Buyurtmachi Shartnoma shartlarini buzgan taqdirda, Ijrochi Buyurtmachining Shaxsiy kabinetga kirish huquqini to'xtatib qo'yishi, shuningdek, Buyurtmachining Platformaga yoki ma'lum Kurs(lar) ga kirishini blok qilishga haqli.
- 8.5. Ijrochi messenger chatlarida (“WhatsApp”, “Viber”, “Telegram”) joylashtirilgan ma'lumotlarning mazmuni, shu jumladan uchinchi shaxslar tomonidan Buyurtmachining bunday chatda qoldirgan shaxsiy ma'lumotlarining ishlatishi uchun javobgar emas.

8.6. Platforma va uning dasturiy ta'minoti, shu jumladan Shaxsiy kabinet "borligicha" taqdim etiladi. Buyurtmachi Platformadan foydalanish xavfini o'z zimmasiga oladi. Ijrochi ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarmasligi yoki kerakli darajada bajarmasligi uchun, shuningdek, quyidagi holatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar uchun javobgar emas:

- Platformaning va (yoki) boshqa dasturiy ta'minotning koddagi xatolar, kompyuter viruslari va dasturiy ta'minotning tashqi bo'laklari tufayli ishlashdagi nosozliklari;
- Internet aloqasi yo'qligi (o'rnatish, to'xtatish va boshqa harakatlarni bajarish imkoni yo'qligi);
- Internetda tijorat tashkilotlarining iqtisodiy faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish (yoki boshqa tashkilotlar tomonidan tartibga solish) va/yoki ushbu subyektlar tomonidan ushbu Shartnomaning bajarilishini murakkablashtiradigan yoki imkonsiz qiladigan bir martalik cheklovlar o'rnatilishi;
- Internet Foydalanuvchilari va/yoki boshqa sub'ektlarning xatti-harakati (harakatsizligi) bilan bog'liq Internet va/yoki kompyuter uskunalaridan foydalanishning umumiy holatini yomonlashtirishga qaratilgan boshqa holatlar;
- Buyurtmachi tomonidan tanlangan Shartnoma bo'yicha xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish usullaridan foydalanish (foydalana olmaslik) yoki foydalanish (foydalana olmaslik) oqibatlarini.

9. Shartnomaning amal qilish muddati. Bekor qilish tartibi

- 9.1. Shartnoma Buyurtmachi aksepti kundan boshlab kuchga kiradi.
- 9.2. Shartnoma Ijrochi tomonidan istalgan vaqtda bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.
- 9.3. Shartnoma Platformaning belgilangan qismiga kirishni ta'minlash uchun tashkiliy, texnik yoki yuridik imkoniyat bo'lmagan holatda, uning amal qilishi boshlanganidan 3 yil o'tgach Ijrochi tashabbusi bilan bir tomonlama suddan tashqari tartibda Kursning belgilangan qismiga kirish masalasi yuzasidan bekor qilinishi mumkin.
- 9.4. Shartnomani bir tomonlama tartibda Buyurtmachi tashabbusiga ko'ra, Ijrochiga support@alltest.uz Ijrochi elektron pochta orqali Shartnomadan voz kechish sabablarini, shuningdek, Ijrochiga Platformadagi Shaxsiy kabinet egasini aniq verifikatsiya qilish imkonini beruvchi shaxsiy ma'lumotlarini, pul mablag'larini qaytarish uchun zarur bo'lgan rekvizitlar va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan bildirishnomani yuborish orqali istalgan paytda bekor qilinishi mumkin.
- 9.5. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, Ijrochi Pul mablag'larini qaytarish qoidalarida nazarda tutilgan shartlar asosida Buyurtmachiga Xizmatlar narxining bir qismini qaytaradi (Shartnomaga 1-ilova).

10. Shartnoma shartlariga o'zgarishlar kiritish

- 10.1. Ijrochi Shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega bo'lib, bunday o'zgarishlar Shartnomaning yangi talqini Internet tarmog'ida Saytda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Bunda allaqachon taqdim etilgan Xizmat narxi masalasida Tomonlar uchun eski Shartnoma talqini amal qilishda davom etadi. Boshqa hollarda esa Shartnomaning yangi talqini amal qiladi.
- 10.2. Shartnomaning yangi talqini e'lon qilinganidan keyin Platformadan foydalanish yoki yangi ilovalarni yuborish Foydalanuvchining Shartnomaning yangi talqini shartlariga rozi bo'lishini bildiradi. Agar

Foydalanuvchi Shartnomaning yangi talqini shartlariga rozi bo'lmasa, u Platformadan foydalanishni to'xtatishi yoki Hisoblarni to'lashi shart.

- 10.3. Buyurtmachi Kursga kirish huquqini faqat Ijrochining yozma roziligi va Tomonlar o'rtasida tuzilgan alohida shartnoma asosida saqlangan holatda, Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxsga o'tkazishga haqli.
- 10.4. Ijrochi shartnomadan kelib chiqadigan barcha majburiyatlar bo'yicha huquqlarni berish, qarzlarni (shu jumladan subagentlar va subijrochilarni jalb qilish orqali) o'tkazish huquqiga ega. Bu bilan Buyurtmachi uchinchi shaxslarga huquqlarni o'tkazishga va qarzni o'tkazishga o'z roziligini beradi. Ijrochi Shaxsiy kabinetga tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali Buyurtmachiga huquqlarning topshirilishi va/yoki qarz o'tkazilishi to'g'risida xabar beradi.

11. Xabarlar va shaxsiy ma'lumotlar

- 11.1. Buyurtmachi Ijrochiga u tomonidan Saytda ro'yxatdan o'tishda shuningdek, Shaxsiy kabinetda taqdim etilgan Buyurtmachi shaxsiy ma'lumotlarini https://alltest.uz/uz/page/privacy_policy.pdf manzilida joylangan Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash Siyosatida keltirilgan shartlarda qayta ishlashga o'z roziligini bildiradi.
- 11.2. Buyurtmachi Ijrochidan istalgan aloqa usulidan, jumladan elektron pochta, telefon, pochta xabarlari va boshqalardan foydalangan holda SMS-xabarlar, shuningdek, boshqa turdagi axborot xarakteridagi (yozma va og'zaki) xabar va bildirishnomalar qabul qilishga rozilik beradi. Ushbu rozilik istalgan vaqtda Buyurtmachi tomonidan Ijrochining support@alltest.uz pochta-siga bildirishnoma yuborish orqali amalga oshiriladi. Shartnomaning Ijrochi tomonidan to'g'ri bajarilishi va Platformaning to'g'ri ishlashi uchun bu rozilik zarurligini inobatga olgan holda, ushbu band bo'yicha rozilik bekor qilingan taqdirda, Buyurtmachi shartnomani bir tomonlama (suddan tashqari) tartibda bekor qilish yoki Platformaga kirishni cheklashga haqli.
- 11.3. Buyurtmachi Ijrochidan istalgan aloqa usulidan, jumladan elektron pochta, telefon, pochta xabarlari va boshqalardan foydalangan holda SMS-xabarlar, shuningdek, boshqa turdagi reklama xarakteridagi (yozma va og'zaki) xabar va bildirishnomalar qabul qilishga rozilik beradi. Bu rozilik Buyurtmachi tomonidan Platformaning demo qismidan Kurs uchun to'lov amalga oshirilmaguncha hech qanday to'lovsiz foydalanish huquqi uchun taqdim etiladigan harakat hisoblanadi. Ushbu rozilik istalgan vaqtda Buyurtmachi tomonidan Ijrochining support@alltest.uz pochta-siga bildirishnoma yuborish orqali amalga oshiriladi.
- 11.4. Buyurtmachi Ijrochiga Buyurtmachi tomonidan Ijrochining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy guruhlarida qoldirilgan Buyurtmachining Ijrochi va u tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun bergan fikr-mulohazasidan Ijrochining rasmiy Saytlarida Ijrochining axborot va reklama materiallarida fikr-mulohazalarni joylash maqsadida foydalanishiga rozilik beradi. Ushbu rozilik Shartnoma tuzilgan kundan boshlab amal qiladi. Ushbu rozilik Ijrochining Shartnomaning 15-bo'limida ko'rsatilgan yuridik manziliga yozma ariza yuborish orqali istalgan vaqtda Buyurtmachi tomonidan bekor qilinishi mumkin.
- 11.5. Buyurtmachi Ijrochiga Buyurtmachi suratini qayta ishlash va keyinchalik foto, videomateriallarda Ijrochining rasmiy Saytlarida Ijrochining axborot va reklama materiallarida va amaldagi qonunchilikni buzmaydigan boshqa maqsadlarda bunday videomateriallarda bir-birdan mustaqil kadrlarda, shuningdek, istalgan obyektga suratni biriktirilgan holda foydalanishiga rozilik beradi. Ushbu rozilik Shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran amal qiladi va Buyurtmachi Platformaga kirishi davrida Ijrochi tomonidan

yaratilgan, shuningdek, bu davrda Buyurtmachidan olingan har qanday obyektlarga nisbatan qo'llaniladi. Buyurtmachi ushbu rozilikni istalgan vaqtda support@alltest.uz elektron manziliga yozma ariza yuborish orqali bekor qilishi mumkin.

- 11.6. Buyurtmachi turli rag'batlar (bonuslar, chegirmalar) olish uchun Ijrochining hamkorlaridan reklama va axborot materiallarini olishga o'z roziligini beradi.

Qabul qilish shartlari va rag'batlantirish miqdori Ijrochining hamkorlari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Ijrochining hamkorlari tomonidan rag'batlantirish shartlari o'zgargan taqdirda, hamkorlar Shaxsiy kabinetda ko'rsatilgan elektron pochta orqali Buyurtmachiga yozma xabarnoma yuborish orqali buni ma'lum qilishi, bonuslarni o'zgartirish, qo'shish va olib tashlash huquqiga ega. Bunday o'zgarishlar yuz berganda, Buyurtmachi Ijrochidan hamkorlardan eski rag'batlantirish shartlarini saqlashni talab qilishga, shuningdek, bunday o'zgarishlar bilan bog'liq har qanday to'lov va zararni talab qilishga haqli emas. Buyurtmachi Ijrochining hamkorlaridan mustaqil hech qanday o'zgartirish kiritmasligi va javobgar emasligini hamda bunday o'zgarishlarni nazorat qilmasligini tushunadi va qabul qiladi. Ijrochining Shartnomaning 15-bo'limida ko'rsatilgan yuridik manziliga yozma ariza yuborish orqali istalgan vaqtda Buyurtmachi tomonidan ushbu rozilik bekor qilinishi mumkin.

12. Nizolarni hal qilish tartibi

- 12.1 Buyurtmachi va Ijrochi o'rtasida har ikkala tomonning Shartnoma shartlarini bajarishi bilan bog'liq nizolar, shuningdek, boshqa turdagi nizolar yuzaga kelganda, bunday nizolar majburiy sudgacha shikoyat tartibidan foydalanib hal qilinishi kerak. Ijrochi Buyurtmachiga elektron shaklda Saytda ro'yxatdan o'tishda Buyurtmachi ko'rsatgan elektron pochta manziliga shikoyat yuborish majburiyatini oladi. Buyurtmachi Ijrochiga shikoyatni elektron shaklda support@alltest.uz elektron pochta manziliga yuborish majburiyatini oladi, shuningdek, Shartnomaning 15-bo'limida ko'rsatilgan Ijrochining manziliga yozma ravishda shikoyatni takrorlaydi. Shikoyatga javob berish muddati – shikoyat qabil qilingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kunini tashkil etadi. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida kamroq muddat belgilangan bo'lsa, qonun hujjatlarida belgilangan muddat qo'llaniladi. Agar tomonlardan biri yuqoridagi shartlarning barchasini bajarmasa, shikoyat qilishning majburiy tartibi bajarilmagan hisoblanadi.

13. Bildirishnomalar va elektron hujjat aylanishi

- 13.1. Shartnomada yoki amaldagi qonunchilikda keltirilmagan holatlarda, Tomonlar bir-biriga taqdim etgan barcha bildirishnomalar, so'rov yoki boshqa xabarnomalar (yozishmalar) yozma ko'rinishda rasmiylashtirilishi va qabul qiluvchi Tomonga pochta orqali, buyurtma xat, elektron pochta (Shartnomaning 15-bo'limida ko'rsatilgan Ijrochining manziliga va (yoki) manzilidan hamda Platformada ro'yxatdan o'tish paytida ko'rsatilgan Buyurtmachining manziliga va (yoki) manzilidan) yoki kuryerlik xizmati orqali yuborilishi kerak. Yozishmalarning qabul qilinganlik sanasi pochta jo'natilgani, shuningdek, buyurtmali yozishmalar, elektron pochta to'g'risidagi bildirishnoma, elektron pochta orqali yuborilganda, elektron tasdiq (u bo'lmasa, xabarnoma yuborilgan vaqt) olingan sana yoki yozishmaning kuryer orqali yuborilganida, yetkazib berilgan kun hisoblanadi. Nizolarni sudda ko'rib chiqishda, Tomonlarning elektron pochta orqali yozishmalari, shuningdek Shaxsiy kabinet orqali yozishmalari, Tomonlar tomonidan yetarli dalil sifatida tan olinadi.
- 13.2. Shartnomani rasmiylashtirishda (o'zgartirish, to'ldirish, bekor qilish), shuningdek, ushbu masalalar bo'yicha yozishmalar olib borishda, tomonlarning qo'li bilan qo'yilgan imzo analoglaridan foydalanishga

ruxsat beriladi. Tomonlar qo'lda qo'yilgan imzo analoglari tomonidan imzolangan, Shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni Tomonlar bajarishi doirasidagi barcha xabarnomalar, xabarlar, bitimlar va hujjatlar yuridik kuchga ega va Tomonlar uchun majburiy ekanligini tasdiqlaydilar. Qo'lda qo'yilgan imzo analoglari deganda, biz Shaxsiy kabinet uchun vakolatli elektron pochta manzillari va akkaunt ma'lumotlarini nazarda tutamiz.

- 13.3. Tomonlarning tasdiqlangan elektron pochta manzillari va Shaxsiy akkauntlar orqali yuborilgan barcha xabarnomalar, xabarlar, bitimlar, hujjatlar va xatlar, agar bunday yozishmalarda aks holatlar ko'rsatilmagan bo'lsa, Tomonlar tomonidan yuborilgan va imzolangan hisoblanadi.
- 13.4. Tomonlarning vakolatli elektron pochta manzillari:
 - Ijrochi uchun: support@alltest.uz yoki Shartnomada ko'rsatilgan boshqa manzil;
 - Buyurtmachi uchun: Saytda ro'yxatdan o'tish paytida ko'rsatilgan elektron pochta manzili.
- 13.5. Tomonlar vakolatli elektron pochta manzillari va Shaxsiy kabinetga kirish uchun zarur bo'lgan axborot va ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash, bunday ma'lumotlarning oshkor etilishiga va uchinchi shaxslarga berilishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar. Tomonlar bunday ma'lumotlarga kirish uchun cheklov tartibini mustaqil ravishda belgilaydilar.
- 13.6. Maxfiylik rejimi buzilganligi to'g'risida Buyurtmachidan ma'lumot olinmaguncha, Buyurtmachining vakolatli elektron pochta manzili va Shaxsiy kabinet yordamida bajarilgan va yuborilgan barcha harakatlar va hujjatlar, hatto bunday harakatlar va hujjatlar boshqa shaxslar tomonidan qilingan va yuborilgan bo'lsa ham, Buyurtmachi tomonidan sodir etilgan va yo'llangan deb hisoblanadi. Bunday holda, Foydalanuvchida ham huquq va majburiyatlar, shuningdek, javobgarliklar paydo bo'ladi.
- 13.7. Xizmat maxfiylik rejimining buzilishi haqida ma'lumot olmaguncha, Xizmatning vakolatli elektron pochta manzili yordamida bajarilgan va yuborilgan barcha harakatlar va hujjatlar, hatto bunday harakatlar va hujjatlar boshqa shaxslar tomonidan qilingan va yuborilgan bo'lsa ham, Xizmat tomonidan sodir etilgan va yo'naltirilgan deb hisoblanadi.

14. Boshqa shartlar

- 14.1. Buyurtmachi Kursga kirish faqat Ijrochining yozma roziligi va Tomonlar o'rtasida tuzilgan alohida shartnoma asosida saqlanish sharti bilan Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxsga o'tkazishga haqli.
- 14.2. Xizmat doirasida Foydalanuvchiga Xizmat hamkorlaridan turli imtiyozlar (bonuslar, chegirmalar) olish imkoniyati beriladi. Qabul qilish shartlari va rag'batlantirish miqdori Xizmat hamkorlari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Hamkorlardan rag'batlantirishi shartlari o'zgargan holatda, Xizmat Foydalanuvchiga ushbu Shartnomada va Xizmatning ishlash tartibida belgilangan tartibda yozma xabar yuborish orqali hamkorlar taqdim etadigan bonuslarni o'zgartirish, qo'shish va olib tashlash huquqiga ega. Bunday o'zgarishlar yuz berganda Foydalanuvchi Xizmatdan hamkorlar taqdim etgan oldingi rag'batlantirish shartlarini saqlashni va bunday o'zgarishlar bilan bog'liq har qanday to'lovni va zararni qoplashni talab qilishga haqli emas. Foydalanuvchi Xizmatning hamkorlaridan mustaqil ravishda hech qanday o'zgartirish kiritmasligini va javobgar emasligini va bunday o'zgarishlarni nazorat qilmasligini tushunadi va qabul qiladi.
- 14.3. Shartnoma shartlaridan birining amal qilmasligi butun Shartnomaning amal qilmasligiga olib kelmaydi. Agar Shartnoma shartlari amal qilmaydi deb topilgan bo'lsa, Tomonlar muzokaralar olib borishi va Shartnoma faoliyatini davom ettiradigan shaklda o'zgartirishlari shart.

14.4. Shartnoma bilan tartibga solinmagan qolgan barcha holatlarda, Tomonlar qonunlardagi ixtiloflarni inobatga olmasdan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

15. Ijrochi rekvizitlari

Ijrochi:

“IME SOLUTIONS PRO” MChJ

Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tum.,

O'zbekiston ovozi ko'ch., 2-uy h/r: 20208000705239789001

O'zR TIA MBda STIR: 307485981 IFUT: 00407 KTUT: 62010

Shartnomaga

1-ilova

Pul mablag'larini qaytarish qoidalarini

Pul mablag'larini qaytarish bo'yicha ushbu Qoidalar (keyingi o'rinlarda – Qoidalar) Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, Ijrochi va Buyurtmachi o'rtasidagi Xizmatlarning to'langan narxini qaytarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

1. Pulni qaytarish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 399, 201-moddalariga muvofiq tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargunga qadar, ya'ni Platformaga kirish taqdim etilishiga qadar mumkin.
2. Agar Buyurtmachi Shartnomadan voz kechsa va u pulni qaytarib olish huquqiga ega bo'lsa, Ijrochi Buyurtmachiga pul mablag'larini qaytarish uchun ariza shaklini yuboradi (keyingi o'rinlarda – Ariza). Buyurtmachi Ijrochidan ariza shakli qabul qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay, uni to'g'ri to'ldirishga, imzolashga va skaner qilingan shaklda Ijrochiga support@alltest.uz elektron pochta manziliga va asl nusxada Ijrochining pochta manziliga yuborishga majburdir.
3. To'lovning kredit/uzoq muddatli shakllarida amalga oshirilib, Buyurtmachi Shartnomadan voz kechsa, Ijrochi Buyurtmachiga faqat o'z haqini qaytaradi va hamkor bank bilan shartnoma tuzishda Buyurtmachining foizlari/xarajatlarini qoplamaydi.